

UDK 598.2

PARRANDACHILIK XO'JALIKLARI MISOLIDA TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQ KROSSLARINING MAHSULDORLIK KO'RSATKICHLARI

dotsent. Ermatov Yu.A.

assistent. Ibragimov D. M.

magistr: Samadov X.A.

talabalar: Akramov D.X.

Isabekova N.Sh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15868765>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi “Zarafshon” parrandachilik korxonasida olib borilgan tajriba natijalari asosida “Koral” va “Lohmann-Sandy” krossi tuxum yo'nalishidagi tovuqlarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari o'rganilgan. Tovuqlarning tuxumdorligi, tuxum og'irligi, tirik vazni, saqlanuvchanligi, ozuqa sarfi va umumiy iqtisodiy samaradorligi kabi omillar solishtirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, “Koral” krossi tuxum soni va umumiy og'irligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bo'lsa, “Lohmann-Sandy” krossi tuxum og'irligi jihatidan ustunlik qilgan.

Annotation. This article presents the results of a study conducted at the “Zarafshon” poultry farm located in Oqdaryo district of Samarkand region, aimed at evaluating the productivity indicators of egg-laying hens from the “Koral” and “Lohmann-Sandy” crossbreeds. The study compared egg production, average egg weight, live weight, survival rate, feed consumption, and overall economic efficiency of the two crossbreeds. Results showed that the “Koral” crossbreed produced more eggs and had a higher total egg mass throughout the year, while the “Lohmann-Sandy” crossbreed showed superiority in terms of individual egg weight.

Kalit so'zlar: Koral, tuxum, kross, Lohmann Tierzucht, Lohmann LSL, Lohmann Sandi.

Kirish. Bozorlarimiz rastalarida qatorlashib turgan tovuq go'shti va tuxum mahsulotlarini xalqimiz iste'moli uchun ishlab chiqarish tizimi tobora rivojlanib bormoqda. Parrandachilik chorvachilikning eng ustuvor tarmoqlaridan biri hisoblanadi, chunki parranda tuxumi va go'shtini ishlab chiqarish yuqori samaradorlikka ega bo'lib, ayniqsa tuxum mahsulotini yetishtirishda kam xarajat sarflanishi alohida ta'kidlashga loyiqdir.

Hukumatimiz tomonidan tashabbus bilan tarmoqqa bir qator imtiyozlar berildi. Mamnuniyat bilan aytishimiz mumkinki, Prezidentimizning 2018 yil 13 noyabrda qabul qilingan PQ-4015-sonli “Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ushbu sohaning kelajakda rivojlanishining ustuvor asosi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur qarorga muvofiq, respublikada parrandachilikni yanada rivojlantirish uchun har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohaga ilg'or texnologiyalar hamda innovatsion ishlanmalarni joriy etish, parranda mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, ularning turlari va eksport ko'lamini kengaytirish maqsadida parrandachilik sohasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi.

Parrandachilik – daromadli va samarali tarmoq. Parrandalar biologik jihatdan yuqori darajada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo'lib, bu soha daromadli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligini barqaror ta'minlashda parrandachilikni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda Respublikamizda dunyoga mashhur **“Lohmann Tierzucht”** firmasining tuxumdor yangi krosslari keltirilib, mahalliy sharoitda urchitilmoqda. Jumladan, “Lohmann Brown Classic”, “Lohmann LSL Extra”, “Lohmann Sandy” kabi krosslar asosida yuqori sifatli tuxum mahsulotlari yetishtirilmoqda.

Tuxum yo‘nalishidagi parrandalarning bugungi kunda eng zamonaviy va yuqori mahsuldor krosslariga quyidagilar kiradi: Lohmann (Germaniya), Hy-Line, Dekalb, Bovans (Gollandiya), Hy-Line (AQSH), Rodonit, Shaver (Rossiya).

Mahsuldorlik ko‘rsatkichlari:

Oq patli tuxumdor tovuqlar: Mahsuldorlik davrida (64 haftalik) tuxumdorlik 280–330 dona, o‘rtacha tuxumdorlik 75–80 %, tuxum og‘irligi 60–62 g, kunlik ozuqa sarfi 105–115 g, mahsulot berish davrida bir boshga jami ozuqa sarfi 42 kg, almashinuv energiyasi 2800 kkal/kg, ozuqa konversiyasi (koeffitsienti): 1,9–2,5 dan oshmasligi lozim.

Jigarrang patli tuxumdor tovuqlar: Mahsuldorlik davrida (64 haftalik) tuxumdorlik: 275–325 dona, o‘rtacha tuxumdorlik: 71–79 %, tuxum og‘irligi: 62–64 g.

Tuxum ishlab chiqarish dinamikasi: Mahsuldorlikning cho‘qqisi tuxum berishning boshlanishidan 5–7 haftadan keyin yuzaga kelib, bu davrda tuxumdorlik 92–95 % ga yetadi. 10 oydan keyin mahsuldorlik 70 % atrofida saqlanadi. Bir mahsulot berish davrida umumiy tuxum og‘irligi 18–19 kg ni tashkil etadi. Tuxum berishning dastlabki haftalarida mahsulot miqdori 8 % dan 16 % gacha, maksimal cho‘qqisigacha esa 32 % dan 64 % gacha oshadi. Eng yuqori mahsuldorlikdan keyingi davrlarda tuxumdorlik haftasiga 4 % ga kamayib boradi. Keyingi davrlarda berilgan tuxumlarning past toifadagi (2–5%) ulushi ko‘p bo‘lmasligi lozim.

Materiallar va metodika. Hozirgi kunda parrandachilik korxonalarida tovuqlarning otalik va onalik galasi sifatida SuperNik final va BraunNik final liniyalari chatishtirilib, Koral final krossi olinmoqda. Ushbu tadqiqotlar Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida joylashgan “Zarafshon” parrandachilik korxonasida olib borildi.

Tadqiqotning maqsadi. Parrandachilik korxonasi sharoitida dunyoga mashhur krosslarga mansub tovuqlarning **hayotchanligi, mahsuldorligi va iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish**dan iborat. Xususan, tovuqlarni saqlash va parvarishlash, o‘sish va rivojlanishi, fazalar bo‘yicha oziqlantirish, balog‘at yoshi, tuxum mahsuldorligi, tuxum berishning yuqori yoshi, mahsulot birligiga ozuqa sarfi, saqlanuvchanligi, tuxum sifati va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi.

Tajriba uchun **“Lohmann-Sandy”** va **“Koral”** krosslariga mansub tovuqlar tanlab olindi. Tovular **140 kunlik yoshdan boshlab** ikki guruhga ajratilib, mahsuldorligi bo‘yicha o‘rganildi. Har ikki guruh uchun bir xil **saqlash, parvarishlash, oziqlantirish va zoogigienik shart-sharoitlar** yaratildi.

Tovuqlar **“Meller” rusumli katakli batareyalarda** saqlanib, **to‘laratsionli quruq omixta yem bilan** oziqlantirildi. Har bir guruhda 100 bosh tovuq bo‘lib, alohida kataklar belgilandi.

Tadqiqot doirasida istiqbolli tovuq krosslarining **nodavlat xo‘jaliklar misolida mahsuldorlik ko‘rsatkichlari va mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqilgan to‘la qimmatli yem retseptlari** asosida oziqlantirish samaradorligi baholandi.

Erishilgan ilmiy natijalar: **“Lohmann-Sandy”** va **“Koral”** krossi tovuqlarining tirik vaznining o‘zgarish dinamikasi bo‘yicha keskin farqlanmaydi.

1-jadval

Tovuqlarning tirik vazni g.

Yoshi, hafta	Koral	Lohmann-Sandy
30	1700 ± 11.5	1639± 10
40	1752 ± 16.85	1693.5±11
50	1787.5 ± 11.34	1728 ±10.3
80	1825.5 ± 14.03	1746±7.25

Tovuqlarning tirik vazni keyingi haftalar va oylarda asta-sekin ortib borgan. Jumladan, "Koral" krossi tovuqlarida tirik vazn 125,5 g yoki 7,3 % ga, "Lohmann-Sandy" krossida esa 107,0 g yoki 6,3 % ga oshgani kuzatildi.

2- jadval

Tovuqlarning tuxum mahsuldorligi

Ko'rsatkichlar	Tovuqlar	
	Koral	Lohmann-Sandy
Tuxum mahsuldorligi dona	299.5±1.68	297.4±1.42
Tuxumining og'irligi, dona g.	62.9±1.81	62.6±1.28
Tuxum massasi, kg	18.83	18.61

"Koral" krossi tovuqlari yil davomida "Lohmann-Sandy" krossi tovuqlariga nisbatan o'rtacha 2,1 donaga ko'p tuxum bergan. Tuxumlarning o'rtacha og'irligi esa, aksincha, "Lohmann-Sandy" tovuqlarida "Koral" krossiga nisbatan mos ravishda 2,0–0,3 grammga og'irroq bo'lgan. Biroq yil davomida umumiy olingan tuxum og'irligi bo'yicha "Koral" krossi tovuqlari "Lohmann-Sandy" krossidan mos ravishda 1,63–0,22 kilogrammga ustunlik qilgan.

Xulosa: O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida "Koral" va "Lohmann-Sandy" krossi tovuqlari o'rtasida tuxum mahsuldorligi, tuxum og'irligi, tirik vazn va ozuqa sarfi kabi asosiy zooto'xojalik ko'rsatkichlari solishtirildi.

Tajriba davomida aniqlanishicha, "Koral" krossi tovuqlari yil davomida o'rtacha 2,1 donaga ko'p tuxum bergani, umumiy tuxum og'irligi esa 1,63–0,22 kg ga yuqori bo'lgani ushbu krossning umumiy mahsuldorlik bo'yicha ustunligini ko'rsatdi. Biroq tuxumlarning o'rtacha og'irligi bo'yicha "Lohmann-Sandy" tovuqlari 2,0–0,3 grammga ustunlikka ega bo'ldi.

Shuningdek, har ikki kross tovuqlarining tirik vazni keyingi haftalar davomida biroz ortib bordi: "Koral" krossida 125,5 g (7,3 %), "Lohmann-Sandy" krossida esa 107,0 g (6,3 %) o'sish kuzatildi.

Yuqoridagi natijalar asosida aytish mumkinki, "Koral" krossi tovuqlari tuxum miqdori va umumiy og'irligi bo'yicha, "Lohmann-Sandy" krossi esa tuxum og'irligi bo'yicha ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Har ikki krossni mahalliy sharoitda saqlash va oziqlantirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islomxo'jayev S.S., Boboyev K.X., G'ulomov K. «Parrandachilikdan amaliy mashg'ulotlar». Darslik. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 1996 y.
2. D.Scrivener “Popular Poultry breeds” Booshop 2014 England
3. Сидоренко Л.И., Щербатов В.И. «Биология кур» Учебное пособие. Краснодар. Куб ГАУ 2016 г.
4. Рекецкий П.П., Казаровец Н.В. «Птицеводство». Учебное пособие. Минск. ИВЦ. Минфина 2011. -432с.